



## TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

**Abdullayeva Xalima Agzamovna**

Toshkent maliy fanlar universiteti katta o'qituvchisi

abdullayevahalima66@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15068085>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola talabalarda pedagogik texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirishni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan nazariy asoslarni ko'rib chiqadi. Ushbu tuzilmalar turli sinf ehtiyojlariga tayyor, yuqori sifatli, moslashuvchan o'qituvchilarni tarbiyalashning asosiy komponentlari sifatida tuzilgan amaliyot, hamkorlik, murabbiylik va mulohaza yuritishni ta'kidlab, o'qituvchilarni samarali tayyorlashga yo'naltiriladi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiyalar, pedagogik kompetensiya, o'qituvchi ta'limi, ijtimoiy o'rganish.

Mamlakatimizda ijtimoiy sohaga alohida e'tibor berib borilayotgan bir davrda pedagog kadrlarning, ya'ni boshlang'ich sinf o'qituvchilarning metodikasida zamonaviy ta'limni shakllantirish talab etilmoqda. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim tizimi oldiga yangicha metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlash vazifasi qo'yildi. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolalarning psixologik, fiziologik o'ziga xosliklarini hisobga olishi, shakllantirish va rivojlantirish tajribasini egallashi lozim. Ma'lumki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ta'lim jarayonidagi metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalarini ishlab chiqish ustuvor o'rin egallaydi. Buning uchun pedagog kadrlardan, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan zamonaviy talablarga javob beradigan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyat, chuqur bilim, zamonaviy dunyoqarashga va puxta metodik tayyorgarlikka ega shaxs bo'lish talab etiladi.

Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida olib borilgan fikr mulohazalarga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchilarning metodik tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan bir qancha asosiy talablar qo'yilgan. Xususan, P.V.Amosova yuritgan fikr-mulohazalarga ko'ra:

- o'z kasbining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini xis qilish;
- ilmiy-insonparvar dunyoqarashga ega bo'la olish;
- ilmiy bilishning shakl va metodlarini hamda ularning evolusiyasini bilish, tevarak olamni bilish va uni o'zlashtirishning turli metodlariga ega bo'lish;
- jamiyat taraqqiyotida ilm-fan ahamiyatini tushunish;
- axborotlarni qidirish, qayta ishlash va foydalanishning innovasion metodlaridan xaardor bo'lish, axborot oluvchi uchun ularni moslashtirish va sharhlash qobiliyatiga ega bo'lish;





- ilm-fan taraqqiyoti va o'zgarib borayotgan ijtimoiy amaliyot sharoitida o'z nuqtai nazarini qayta ko'rib chiqish, ishlashning innovasion shakl va metodlarini tanlashga qodir bo'lish;

- turli fanlararo bilim sohalarida ishlashga psixologik va metodik tayyorlangan bo'lish;

- odam shaxsi rivojlanish davrida o'ziga xos davr sifatida bolalikning ahamiyatini xis qila olish.

Oliy ta'limda o'qitish amaliyoti ilmiy metodik adabiyotlarda yoritilgan mavjud an'naviy pedagogik ta'lim tizimida qator muvoffaqiyatlar qo'lga kiritilgan bo'lsada, undagi kamchiliklarni ajratib ko'rsatish mumkin. Bizning fikrimizcha, unda turli darjalilik, mobillik, moslashuvchanlik, uzluksizlik, uzviylik, ko'pqirralilik yetishmaydi.

N.V.Amosova so'nggi yillarda oliy va o'rta maxsus pedagogik o'quv muassasalari "ko'p fanlilik" deb nom olgan illatga duchor bo'lganini qayd etib o'tadi, bunda talabalar bir vaqtning o'zida ko'pincha bir biri bilan yaxshi bog'lanmagan, ba'zan esa bir birini takrorlovchi o'n ikkitagacha mustaqil o'quv fanlarini o'rganishga to'g'ri keladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorlashning mavjud tizimini boshlang'ich ta'limda sodir bo'layotgan innovasion jarayonlarga mos ravishda isloh qilish, metodik tayyorgarlikni takomillashtirish texnologiyalarini ishlab chiqish lozim.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning psixologik pedagogik va metodik tayyorgarlik bo'yicha ba'zi tadqiqot ishlarida keltirilgan qarashlarni ko'rib chiqamiz.

Qator tadqiqot ishlarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning psixologik pedagogik asoslari yoritib berilgan: metodik tayyorgarlik jarayonida talabalrining bilish faolligini shakllantirish, ijodiy o'sishga asos sifatida hayotda o'z, pedagogika oliy ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari, o'qituvchilarni boshlang'ich sinfdagi iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash faoliyatiga tayyorlash va hokazolar.

Davlat ta'lim standartiga muvofiq boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorlashga quyidagi talablar qo'yiladi:

- mutaxassis boshlang'ich sinf o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashda individual differensial yondashuvni tashkil etish metodlariga ega bo'ladi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematik amallarni bajarish va masalalarni echish asoslarni o'rgatish metodlariga ega bo'ladi;





- boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan dastur materiallarini o'zlashtirish darajalarini belgilash, ularni individual xususiyatlarini aniqlash, o'quvchilarda mustaqil bilim olish bo'yicha birlamchi malakalarni shakllantirishni amalga oshira oladi;

- ta'lim va tarbiya bo'yicha o'quvchilarning samarali o'quv faoliyati, faolligi, mustaqilligi, bilishga qiziqishni ta'minlovchi optimal metodlarni tanlay oladi;

- o'quvchilarga individual yondashishni, dars va darsdan tashqari ishlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual, guruhli va jamoaviy faoliyatini uyg'unlashtirishni amalga oshira oladi;

- sinov dasturlari va darsliklar mazmunini tahlil qilish, o'rganilayotgan material mazmuniga o'zgartirish kiritish, didaktik materiallarni saralash va ishlab chiqishni amalga oshira oladi.


Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshira olishni ta'minlash maqsadida ularni o'qitish mazmuni hamda metodlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy metodik tadqiqotlar olib borgan pedagog olimlarimiz ishlariga nazar solish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan:

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish uchun quyidagi metodlar tavsiya etildi:

1. Pedagogik tahlil metodi. Mazkur metod ta'lim jarayonida talabalarda matematika va tabiatshunoslik o'qitish metodikasiga oid bilimlarni shakllantirishning mavjud holati haqida xulosa chiqarishga imkon berdi. Fanlarning o'quv dasturlari hamda darsliklari ularda matematika va tabiatshunoslikka o'qitish metodikasiga oid ko'nikma va malakalarning qay darajada ifodalanganligi yuzasidan har tomonlama tahlil qilindi.

2. Anketa metodi. Mazkur metod talabalarda shakllangan matematika va tabiiy fanlarga oid bilimlar darajasi, o'qituvchilar tomonidan ushbu jarayonga qaratiladigan e'tibor va ta'lim mazmunining mavjud ahvolini baholash, matematika va tabiiy fanlarga o'qitish metodikasiga oid bilimlarni shakllantirishga imkon beradigan omillar hamda xalqaro baxolash dasturlari topshiriqlarini yechishga o'rgatishga oid ta'lim mazmuni va hajmini belgilash, tajriba-sinov jarayonida ulardan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, boyitish va takomillashtirish, uning samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

3. Suhbat metodi. Mazkur metoddan anketa metodining mantiqiy davomi sifatida foydalanildi. Suhbat metodi amalga oshirilgan tadqiqot bo'yicha respondentlarning fikr-mulohazalarini o'rganish, uning mohiyatini har






tomonlama tahlil etish uchun muayyan sharoit yaratishga xizmat qildi. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda suhbat metodidan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida uning mohiyatini yoritishga yo'naltirilgan savollardan foydalanildi. Samaradorlikni ta'minlash maqsadida oldindan savollar tizimi ishlab chiqildi. Suhbatlar davomida respondentlarning shaxsiy fikr-mulohazalarini erkin bayon etishlariga alohida e'tibor qaratildi.

4. Pedagogik kuzatish metodi. Mazkur metod bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishga yo'naltirilgan o'quv materiallarining talabalar tomonidan qanday o'zlashtirilganligi, talabalarning mazkur materiallar bilan qanday ishlay olishini aniqlash, ularning tajribalarini o'rganish va xulosa chiqarish imkonini berdi. Pedagogik kuzatish metodi yordamida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayonida belgilangan metodika mazmuniga maqsadga muvofiq o'zgartirishlar kiritish, uni didaktik jihatdan boyitib borish imkoniyatiga ega bo'lindi.

5. Maktab ish hujjatlarini o'rganish metodi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlari samaradorligini o'rganishda maktab amaliyotchi psixologining tashxis daftari, sinf rahbarining tegishli ish hujjatlari tahlil qilindi va u asosida o'quvchilarda matematika va tabiatshunoslik o'qitish metodikasiga oid bilimlarini shakllantirish jarayoni takomillashtirib borildi.

Yuqoridagi metodlar yordamida to'plangan materiallar har tomonlama chuqur tahlil qilindi, muayyan tartibga solindi va tegishli xulosalar chiqarildi. Mazkur xulosalar o'quvchilarda tabiiy fanlarga oid kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini takomillashtirish va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish asosida o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishga oid ilmiy-tadqiqot ishining muhim tarkibiy qismi hamda uning samaradorlik darajasini belgilab beruvchi tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyati belgilangan ta'lim mazmuni va metodikasining ishlab chiqilganligi hamda uning g'oyalari muvofiq ish ko'rilganligiga bog'liq bo'ladi. Uning samaradorlik darajasi yuqori bo'ladi.





**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh. Qudratova & D. To'rabekova (2023) – The role of STEAM education in shaping the future teacher's personality. *Modern Science and Research*, 2(9), Pages 40-44.
2. Qudratov, T. B. (2021). Ta'limda xalqaro tajribalar. *Вестник магистратуры*, (1-3 (112)), 66-67.
3. Qizi, S. Q. B., & Akramjanovich, K. A. (2024). STEAM TEXNOLOGIYALARI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 4(7S), 494-497.
4. Qudratova, S., & Tilovboyeva, S. (2024). SYSTEM FOR THE USE OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE ORGANIZATION OF CLASSES FOR STUDENTS. *Академические исследования в современной науке*, 3(48), 160-164.
5. Qudratova, S., & Tilovboyeva, S. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TAHSIL OLUVCHI TALABALARGA ZAMONAVIY BILIMLAR BERISH. *Modern Science and Research*, 3(12), 378-382.
6. Qudratova, S. (2023). SYSTEM OF USING INTERNATIONAL EXPERIENCES IN ORGANIZING LESSONS FOR STUDENTS OF PEDAGOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Modern Science and Research*, 2(6), 706-710.
6. Qudratova, S., & Azizova, D. (2024). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH. *Modern Science and Research*, 3(12), 305-311.

